ULUG‘ AJDODLARIMIZ MA’NAVIY MEROSI, O‘ZBEK OILASIDA FARZAND TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIM

Rasulov Bahodir Baratovich
Samarqand viloyati Past Darg‘om tuman 3-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Jamiyatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq masala doim davlat siyosatining bosh ustivor vazifasi bo‘lishi lozim. Sharqda azal-azaldan ta’lim va tarbiyaga nihoyatda nozik munosabatda bo‘lishgan. Bu borada biz ushbu maqolani yozishimiz asnosida ulug‘ allomalarimizning ilmiy merosini va ularda bayon qilingan pand-nasihatlarini tahlil qilishga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: Sharq, oila, farzand, jamiyat, ta’lim-tarbiya.
Аннотация:Вопрос, связанный с воспитанием молодежи в обществе, всегда должен быть главным приоритетом государственной политики. С незапамятных времен на Востоке образование и воспитание отличались чрезвычайной чуткостью. В связи с этим при написании данной статьи мы попытались проанализировать научное наследие наших великих ученых и их учения.
Ключевые слова: Восток, семья, ребенок, общество, воспитание.
Annotation: The issue related to the education of young people in society should always be the main priority of state policy. From time immemorial in the East, education and upbringing have been distinguished by extreme sensitivity. In this regard, when writing this article, we tried to analyze the scientific heritage of our great scientists and their teachings.
Key words: East, family, child, society, education.

Buyuk sharqning qomusiy olimlari ham o‘z vaqtida oila va yoshlar masalasiga alohida e’tibor berganlar. Jumladan, butun Sharqning ulkan qomusiy aqli, jahon ilmi va madaniyatining eng mashhur namoyandalaridan biri bo‘lgan Abu Ali Ibn Sino ham oiladagi farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Ibn Sino bolaning mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishuvi zarurligini, maqsadga erishish uchun tarbiyada bolani ba’zan maqtash, ba’zan jazolash ham kerakligini aytgan.

Sharq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy hamda badiiy tafakkuri taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan alloma Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kunidan boshlab oilada zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Yusuf Xos Hojib ota-onalarni bola tarbiyasiga e’tibor berishga da’vat etar ekan, jamiyat farzandlar xulq-atvoriga qarab ota-onalarga baho berishini aytib, ularni ogohlantiradi.

O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bekning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota-onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozimligini ta’kidlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa’diyning uqtirishicha, oila bolaning baxtli kelajagi uchun zamin yaratadi. Sa’diy ota-onalarga, ayniqsa, otalarga o‘z bolalarini tarbiyalashni, o‘qitishni, hunar o‘rgatishni, jismonan chiniqtirishni, ularga odamlar bilan muloqotda bo‘lish odobini o‘rgatishni, sog‘lom bo‘lish uchun muayyan me’yorda ovqatlanishga odatlantirishni tavsiya etadi.

Ko‘rinib turibdiki, oila masalasi barcha zamonlarda dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ham bu masalaga alohida e’tibor berilmoqda,

https://wordlyknowledge.uz

mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan oila institutini dunyoning boshqa davlatlarida uchratmaysiz. Boshqa mamlakatlarda ham oilalar bor, lekin ulardagi o‘zaro umuminsoniy munosabatlarni ma’naviy jihatdan bizning oilalarimizga qiyoslab bo‘lmaydi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida yaratilgan qulay shart – sharoitlar bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi. Bularning barchasi O‘zbekiston rahbariyatining bugungi kunda amalga oshirayotgan oila va yosh avlodni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati mamlakat kelgusi taraqqiyotining garovi ekanining yaqqol dalolatidir.

Oilaparvarlik, oilada unib o‘sayotgan bolalarga nisbatan e’tibor, ularning tarbiyali inson bo‘lib yetishishlari uchun qayg‘urish ajdodlarimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Zero, oila har bir insondan ana shunday e’tiborni talab etadi. U shunday ma’naviy qo‘rg‘onki, uni har kuni, har lahzada rivojlantirib borish lozim.

Oilaning asosiy ustunlarini er va xotin tashkil etadi. Agar oilada er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar samimiy bo‘lmas ekan bunday oilalar parokandalikka yuz tutadi. O‘rtada o‘zaro ishonch yo‘qoladi. Er-xotinning samimiy munosabatlarini saqlash uchun , avvalo, huquqiy munosabatlar to‘g‘ri shakllangan bo‘lishi kerak. Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatlariga qarab izzat-hurmatni, muomalani o‘rganib boradi. Ota-onalarimiz bir-birlariga mehrli bo‘lsalar, shirin muomala qilsalar, bolalar ham shunga ko‘nikma hosil qilib, shunday muomalaga o‘rganadilar.

Ko‘rinadiki, oilada farzandlarga nisbatan xushyor va ogoh bo‘lish, ularning bandligini nazorat qilib borish har bir ota-ona uchun zarurdir. Afsuski, o‘z farzandlarini nazoratsiz, e’tiborsiz tashlab qo‘yadigan oilalar ham hayotimizda uchrab turadi. Bunday ota-onalar farzand tarbiyasi u yoqda tursin, o‘zlari tarbiyaga muhtoj. Bolalari esa nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning tashvishi, muammosiga aylanadi. Undaylardan na ota-ona, na el-yurt, na mamlakat manfaat ko‘radi. Ana shunday holatlar ba’zan har qanday kishini o‘ylantirib qo‘yishi, tabiiy. Shuning uchun ham hozirgi kunda voyaga yetib kelayotgan o‘g‘il–qizlarimizni, avvalo, turmushga, oila munosabatlariga tayyorlash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ayrim oilalarimizda, ko‘pincha ota-onalar farzandlarini turmushga chiqarish yoki uylantirish deganda, ularning faqat moddiy jihatlarini tushunishadi. Ya’ni uy-joyi, yashash sharoiti yoki mashinasi bormi deganday. Aslida esa inson uchun birinchi navbatda moddiyat emas, balki ma’naviyat muhimdir. Agarda yosh oila a’zolarining ma’naviy olami, ongi, bilim darajasi rivojlanmagan bo‘lmasa, hayot talabi darajasida bo‘lmasa, bunday oila tanazzulga yuz tutishi aniq..

Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotining bir-biriga yelkadosh bo‘lishini, o‘zaro odoblarini, bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Chunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarishi mumkin, ammo ko‘rganini hech qachon esdan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini unutmasik lozim. Bola – ota bilan onani bir-biriga chambarchas bog‘laydigan, oilada er-xotinning mehr-muhabbatini orttiradigan bir mo‘jiza. Bola – oila daraxtining shirin-shakar mevasi. Lekin shu mevani zahar qilmay yetiltirish, bu uning tarbiyalanishi hisoblanadi. Tarbiyalaganda ham yashab turgan ma’lum ijtimoiy tuzumga mos qilib, ya’ni sog‘lom, baquvvat, bilimli, madaniyatli, yuksak ma’naviy xislatlarga ega bo‘lgan barkamol shaxs qilib tarbiyalash talab etiladi.

O‘zbek oilasida farzandning dunyoga kelishi, avvalo, oila a’zolariga, ota-ona, qavm-qarindosh, quda-andalarga quvonch keltiradi. Shu sababli dono xalqimiz xoh o‘g‘il, xoh qiz farzand bo‘lsin, baribir hayotimizning guli, umrning quvonchi, belning quvvati, kelajak davomchisi deya yangi mehmonni e’zozlaydilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda ham yurtimizda ana shunday go‘zal axloq mezonlari bilan yashab kelayotgan, o‘g‘il-qizlarini shu ruhda tarbiyalayotgan ko‘plab

https://wordlyknowledge.uz

ibratli oilalar barchamizda havas uyg‘otishi tabiiydir. Unga bag‘ishlangan ilk marosim – chaqoloqqa go‘zal va chiroyli ism qo‘yish. Navbatdagilari esa uni beshikka solish, beshik to‘yi va hokazo. Mazkur inson zotini ulug‘lashdek o‘zbekona marosimlarda bevosita ishtirok etayotgan o‘spirin o‘g‘il-qizlar o‘zlarini asta-sekin ijobiy hayotga va oilaviy turmushga tayyorlab boradilar.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushushini ham ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin.

Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, mol-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, muomalali, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, oila har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Uni har taraflama rivojlantirish, birinchi navbatda ayol shaxsi bilan, qolaversa, boshqa oila a’zolariga ham bog‘liq. Ayollarimiz qanchalik savodli va tarbiyali bo‘lsa oiladagi farzandlar ham kim bo‘lishini izohlashga hojat yo‘q. Chunki har qanday odam bolasi dastavval ona bag‘rida ruhan va jisman shakllana boshlaydi. So‘ngra ota va boshqa yaqinlar orasida ulg‘ayadi.

Bugungi kunda yoshlarning turli salbiy guruhlarga qo‘shilib qolishlari holatlari ham uchrab turayotganligiga alohida e’tibor berish lozim. Bunday holatlarning oldini olish uchun oiladagi sog‘lom psixologik iqlim yaratish, oila a’zolarining munosabatlarida o‘zaro ishonch va ularning muomalasi, o‘zaro hurmatning mavjudligi oiladagi farzandlarimizning turli salbiy guruhlarga qo‘shilib qolishidan asraydi. Shuningdek, ota-onaning farzandini turli to‘garaklarga a’zo qilishi, sport bilan shug‘ullantirishi, vaqtini bekor o‘tkazishga yo‘l qo‘ymasligi, zarur bo‘lganda maktab jamoatchilikni, ichki ishlar bo‘limlari bilan hamkorlikda ish olib borishlari farzandlarning voyaga yetmagan huquqbuzarlar qatoridan o‘rin olishining oldini oladi.

Demak, oiladagi yoshlar tarbiyasi – oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, hurmat, sadoqat, or – nomus kabi an’analarni avloddan – avlodga o‘tkazish asosida uzluksizlik, tizimlilik bilan davom ettirishdan iborat. Shuningdek, sog‘lom oilada tarbiyalangan inson adolatli jamiyat qurish va uni rivojlantirish, tinch – totuv yashashi uchun hamisha kurashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat (asosiy tushunchalar izohli lug‘ati). Toshkent-2010 y.
2. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz” M.Quronov. “Ma’naviyat”. 2013 y.
3. Kaykavus. «Kobusnoma». – T., O‘qituvchi. 1990.
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Qo‘llanma. – T., 2001.
5. Kayumov A. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. – T., 1987. – 240 – b.
6. G‘aybullaev N.R., Yodgorov R., Mamatkulova R. Pedagogika (oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). – T., 2005 y. 89 – 104 b.
7. Xotamov.Sh., Turaxanova.D. Sharq allomolarining hikmatli so‘zlar to‘plami., 2013y.

https://wordlyknowledge.uz